

XX ASR BOSHLARIDA SURXON VOHASI AHOLISINING TABOBAT BILAN BOG'LIQ BILIMLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLIL

Karimov Yusufjon Sherali o'g'li

Termiz davlat universiteti Etnografiya etnologiya va antropologiya

ixtisosligi tayanch doktoranti

karimovyusuf07@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-2133-4568>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Surxon vohasi, xususan Ko'hitang va unga tutash hududlar aholisining an'anaviy tabobat bilan bog'liq bilimlari tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish tajribalari, sanitariya-gigiyena qoidalari, tabiiy mineral manbalar va dorivor o'simliklardan foydalanish usullari hamda chorvador aholi orasida shakllangan davolash amaliyotlari o'rganilgan. Shuningdek, mahalliy tabobatning zamonaviy tibbiyot rivojlanishi bilan o'zgarish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari Surxon vohasi aholisining tabiat bilan uyg'unlashgan holda shakllangan tibbiy bilimlari xalq madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, xalq tabobati, Ko'hitang, etnografiya, sanitariya, dorivor o'simliklar, buloq suvlari, epidemiya, an'anaviy tibbiyot.

Аннотация: В данной статье проводится историко-этнографический анализ традиционных медицинских знаний населения Сурханского оазиса, в частности жителей Кухитангского региона и прилегающих территорий, в начале XX века. В исследовании рассмотрены практики борьбы с инфекционными заболеваниями, санитарно-гигиенические нормы, способы использования природных минеральных источников и лекарственных растений, а также лечебные практики, сформировавшиеся среди скотоводческого населения. Кроме того, освещаются процессы трансформации местной народной медицины под влиянием развития современной системы здравоохранения. Результаты исследования показывают, что

медицинские знания населения Сурханского оазиса, сформировавшиеся в тесной взаимосвязи с природной средой, являлись важной составной частью народной культуры.

Ключевые слова: Сурханский оазис, народная медицина, Кухитанг, этнография, санитария, лекарственные растения, родниковые воды, эпидемия, традиционная медицина.

Abstract: This article presents a historical and ethnographic analysis of the traditional medical knowledge of the population of the Surkhan Oasis, particularly the inhabitants of the Kohitang region and its surrounding areas, in the early twentieth century. The study examines practices used to combat infectious diseases, sanitary and hygienic measures, the use of natural mineral springs and medicinal plants, as well as healing methods developed among pastoral communities. Furthermore, the article highlights the transformation of local folk medicine under the influence of the development of modern healthcare systems. The findings demonstrate that the medical knowledge of the Surkhan Oasis population, formed through close interaction with the natural environment, constituted an important component of traditional culture.

Keywords: Surkhan Oasis, folk medicine, Kohitang, ethnography, sanitation, medicinal plants, mineral springs, epidemic, traditional medicine.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Insoniyat tarixida salomatlikni saqlash va kasalliklarni davolash bilan bog'liq bilimlar jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalq

o'zining tabiiy-geografik muhiti, turmush tarzi, xo'jalik faoliyati va tarixiy tajribasi asosida davolashning o'ziga xos usullarini shakllantirgan. Shu jihatdan qaralganda, O'zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxon vohasi aholisi tomonidan yaratilgan va avloddan-avlodga o'tib kelgan xalq tabobati an'analari alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Mazkur bilimlar tizimi nafaqat kasalliklarni davolash, balki aholi salomatligini muhofaza qilish, turli epidemiyalarning oldini olish va sog'lom turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan amaliy tajribalarni ham o'z ichiga olgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasi aholisi, ayniqsa tog' va tog'oldi hududlarida istiqomat qiluvchi aholi vakillari zamonaviy tibbiyot xizmatlaridan deyarli foydalana olmagan. Natijada ular davolashning xalqona usullariga, dorivor o'simliklarga, mineral buloqlarga hamda mahalliy tajribaga asoslangan tibbiy bilimlarga tayanishga majbur bo'lganlar. Bu davrda vabo, chechak, qizamiq, bezgak, tif, sil, difteriya va boshqa yuqumli kasalliklarning tez-tez uchrashi aholi orasida sanitariya-gigiyena qoidalari va profilaktik tadbirlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda xalq tabobati va etnomeditsina masalalarini o'rganish jahon etnologiyasi va antropologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki an'anaviy tibbiy bilimlar tizimi xalqning ekologik tajribasi, dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Shu bois Surxon vohasi aholisining tabobatga oid qarashlari va amaliy tajribalarini tarixiy-etnografik nuqtayi nazardan tadqiq etish mintaqaning nomoddiy madaniy merosini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Surxon vohasi aholisining an'anaviy tabobati va etnomeditsina bilan bog'liq bilimlari O'zbekiston etnologiyasi va tarixshunosligida qisman o'rganilgan bo'lsa-da, XX asr boshlaridagi xalq tabobati tajribalarini maxsus tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar nisbatan kam uchraydi. Mavzuga oid ayrim ma'lumotlar M.

Azimovning "Qatag'onlar" asarida uchrab, unda voha aholisining ijtimoiy turmushi, kundalik hayoti va mahalliy an'analari bilan bog'liq ayrim lavhalar yoritilgan. Mazkur asar bevosita xalq tabobatiga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, tadqiqot davridagi aholi turmush tarzini tiklash va tabobat bilan bog'liq qarashlarni aniqlashda yordamchi manba vazifasini bajaradi.

Mavzuni ilmiy jihatdan yoritishda I.I. Umarovning "Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi muhim o'rin tutadi. Muallif Ko'hitang hududi aholisi nomoddiy madaniyatining turli ko'rinishlari qatorida xalq tabobati, shifobaxsh buloqlar, dorivor o'simliklar va davolash bilan bog'liq xalqona bilimlarni ham tahlil qilgan. Tadqiqotda hudud aholisining kasalliklarni davolash, ularning oldini olish va sog'liqni tiklashga qaratilgan an'anaviy tajribalari etnografik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Maqolada foydalanilgan asosiy manbalarni 2025–2026-yillarda Sherobod tumanining Xatak qishlog'i hamda Boysun tumanining Xomkon va Chilonzor qishloqlarida to'plangan dala-etnografik materiallar tashkil etadi. Mazkur materiallar mahalliy aholining xalq tabobati bilan bog'liq qarashlari, dorivor o'simliklardan foydalanish tajribalari, sanitariya-gigiyena odatlari va shifobaxsh tabiiy manbalar haqidagi tasavvurlarini o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga amal qilindi. Manbalarni tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy, etnografik kuzatuv, og'zaki tarix (oral history) hamda tavsifiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Dala materiallarini o'rganishda respondentlar bilan suhbat, intervyu va kuzatish usullari qo'llanildi. Shuningdek, yozma manbalardagi ma'lumotlar dala-etnografik materiallar bilan qiyoslanib, xalq tabobatining tarixiy davomiyligi va lokal xususiyatlari aniqlandi. Ushbu metodologik yondashuv Surxon vohasi aholisining tabobat bilan bog'liq bilimlarini tarixiy-etnografik nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /

DISCUSSION). Tadqiqot natijalari XX asr boshlarida Ko‘hitang qishloqlari aholisining tabobat bilan bog‘liq bilimlari tabiiy muhit, xo‘jalik faoliyati va ko‘p asrlik amaliy tajriba asosida shakllanganligini ko‘rsatadi. Mintaqada zamonaviy tibbiyot muassasalari va malakali tibbiy xizmatning cheklanganligi sababli aholi kasalliklarning oldini olish va ularni davolashda asosan xalq tabobati usullariga tayangan [2]. Shuning uchun ham xalq tabobati nafaqat davolash vositasi, balki mahalliy aholi turmush tarzining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Manbalar tahlili Ko‘hitang hududida yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 1916-yildagi vabo epidemiyasi aholining katta qismini qamrab olgan bo‘lib, ushbu hodisa xalq orasida kasalliklarning oldini olishga qaratilgan amaliy bilimlarning shakllanishiga turtki bergan [2, b. 89]. Otaqul polvon bilan bog‘liq voqea aholi orasida kasallik tarqalish manbalarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan harakatlar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa epidemiologik bilimlar ilmiy asosda shakllanmagan bo‘lsa-da, amaliy kuzatuvlar orqali ma‘lum tajriba to‘planganidan dalolat beradi.

Kasalliklarga qarshi kurashda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Kirlarni oqar suv bo‘yida qaynatib yuvish, sho‘ra o‘simligidan tabiiy tozalovchi vosita sifatida foydalanish hamda maishiy chiqindilarni maxsus joylarga to‘kish kabi amaliyotlar yuqumli kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar bo‘lgan [3]. Mazkur odatlar xalqning sog‘liqni saqlash borasidagi amaliy tajribasi va ekologik madaniyati shakllanganligini ko‘rsatadi.

Ko‘hitang aholisi tabobatida tabiiy mineral manbalar alohida o‘rin tutgan. Buloq suvlarining tarkibiy xususiyatlarini amaliy kuzatish asosida baholash natijasida ayrim suvlarning davolovchi xususiyatlari aniqlangan [2]. Xususan, Azlarbuloq suvidagi yod moddasi, Panjob va Xomkon hududlaridagi sho‘r suv hamda balchiqlardan foydalanish teri kasalliklari va bo‘qoqni davolashda muhim vosita sifatida qaralgan [2]. Bu holat mahalliy aholining tabiiy resurslardan tibbiy maqsadlarda foydalanish bo‘yicha boy

tajribaga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Cho‘ponlar orasida shakllangan davolash usullari esa xalq tabobatining ekologik va xo‘jalik muhiti bilan uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Andiz, uchqat, oyuvquloq, kavrak va boshqa dorivor o‘simliklardan foydalanish shamollash, ichki kasalliklar va jarohatlarni davolashda muhim ahamiyat kasb etgan [4; 5]. Ayniqsa, mumiyoning suyak shikastlanishlarida qo‘llanilishi va kavrakning ichak qurtlarini tushirish vositasi sifatida ishlatilishi mahalliy tabobatning amaliy samaradorlikka asoslanganligini ko‘rsatadi [5].

Tadqiqot davomida aniqlangan bug‘ bilan davolash usuli ham xalq tabobatining o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Archa, shuvoq va qo‘ziquloq kabi o‘simliklar yordamida tayyorlangan bug‘ muolajasi shamollash kasalliklarini davolashda keng qo‘llanilgan [4]. Ushbu usulning ayrim elementlari zamonaviy fizioterapevtik muolajalar bilan hamohang bo‘lib, xalq tabobatining ayrim jihatlarini ilmiy asosga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlaridan davolash vositasi sifatida foydalanish ham Ko‘hitang aholisi tabobatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Revmatizm kasalligida ot go‘shiti va yog‘idan, ichki kasalliklarda esa tuya sutidan foydalanilganligi qayd etiladi [5]. Bu usullar mahalliy xo‘jalik faoliyati va tabobat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaqqol namoyon qiladi.

1930-yillardan boshlab sovet sog‘liqni saqlash tizimining joriy etilishi natijasida an‘anaviy xalq tabobatining amaliy ahamiyati asta-sekin kamaygan bo‘lsa-da, ayrim davolash usullari va dorivor o‘simliklardan foydalanish an‘analari hozirgi kungacha saqlanib qolgan [3; 4; 5]. Bu holat xalq tabobati Ko‘hitang aholisi nomoddiy madaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida davom etayotganligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Ko‘hitang qishloqlari aholisining tabobat bilan bog‘liq bilimlari kasalliklarni davolash va oldini olishga qaratilgan xalqona tajriba, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish asosida shakllangan bo‘lib, ular Surxon vohasi aholisining tarixiy-etnografik taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XX asr boshlarida Ko‘hitang qishloqlari aholisining tabobat bilan bog‘liq bilimlari mahalliy tabiiy-geografik muhit, xo‘jalik faoliyati va ko‘p asrlik amaliy tajriba asosida shakllangan xalqona bilimlar tizimini tashkil etgan. Hududda zamonaviy tibbiyot muassasalari va malakali tibbiy yordamning cheklanganligi sababli aholi kasalliklarning oldini olish va ularni davolashda asosan an‘anaviy tabobat usullariga tayangan. Tadqiqot natijalari Ko‘hitang aholisi orasida vabo, chechak, qizamiq, tif, bezgak va boshqa yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligini hamda bu holat sanitariya-gigiyena bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarning shakllanishiga turtki berganligini ko‘rsatdi.

Kirlarni qaynatib yuvish, sho‘ra o‘simligidan tabiiy tozalovchi vosita sifatida foydalanish, chiqindilarni maxsus joylarga tashlash kabi amaliyotlar xalqning sog‘liqni saqlash borasidagi tajribasi va profilaktik qarashlarini aks ettiradi. Shuningdek, Ko‘hitang tog‘ tizmasidagi shifobaxsh buloqlar, sho‘r suvlar va balchiqlardan foydalanish mahalliy aholining tabiiy resurslarning davolovchi xususiyatlari haqidagi bilimlari rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yodga boy buloq suvlari, dorivor o‘simliklar hamda chorvachilik mahsulotlaridan foydalanish shamollash, ichki kasalliklar, teri xastaliklari va boshqa kasalliklarni davolashda muhim ahamiyat kasb etgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Azimov M. Qatag‘onlar. – Qarshi: Nasaf, 2014. – 156 b.
2. Umarov I.I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – 160 b.
3. Dala yozuvlari. Sherobod tumani, Xatak qishlog‘i. 2025-yil.
4. Dala yozuvlari. Boysun tumani, Xomkon qishlog‘i. 2025-yil.
5. Dala yozuvlari. Boysun tumani, Chilonzor qishlog‘i. 2026-yil.